



FARG'ONA VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar  
bazasi asosida shakllantirildi


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari 34,3 mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 28,1 mingta.

Shuningdek, ushbu davrga 63,9 mingta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 103,1 foizni tashkil etdi.

### Korxonalar va tashkilotlar soni to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

( 1- yanvar holatiga)




## Yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024- yil yanvar-dekabr holatiga)


2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar soni 6,2 mingtani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonava tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yozyovon tumani (79 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 32 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)






(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 34,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 28,3 mingtasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,9 foiz, sanoat – 16,4 foiz, qurilish – 6,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,4 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Farg'ona shahrida – 17,7 foiz, Qo'qon shahrida – 10,2 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,7 foiz, Oltiariq tumanida – 5,7 foiz va Uchko'prik tumanida – 5,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)






(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.


2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 978 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 949 ta;
- yirik korxonalar 29 tani tashkil etdi.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 28,3 mingtani tashkil etdi, ulardan 28,1 mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,1 foiz, sanoat – 19,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,2 foiz, qurilish – 7,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 4,7 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,7 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog'lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 154 tadan 184 taga (o'sish 30 taga) ko'paydi.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)






(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (17,6 foiz), Qo'qon shahrida (10,5 foiz), Marg'ilon shahrida (8,1 foiz), Oltiariq tumanida (6,0 foiz) va Uchko'prik tumanida (5,2 foiz) faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi So‘x tumani (8,2 foiz), Farg‘ona shahar (8,1 foiz) va Yozyovon tumanida (7,9 foiz) faoliyat ko‘rsatmoqda.

#### Hududlar kesimida soni (birlikda)



#### Yillar kesimida soni (birlikda)



Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

1 174



53

Baliq ovlash va akvakultura

O‘rmonchilik va yog‘och tayorlash

10




(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 16,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,0 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash va 1,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tashkil etgan.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



5 284 | Ishlab chiqarish sanoati



159 | tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



59 | Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



113 | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash






(2025- yil 1- yanvar holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 29,5 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 20,7 foiz ulushni tashkil etdi;

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 11 594 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 58,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 33,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,4 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	1 658
Qo'qon shahar	1 300
Marg'ilon shahar	987
Uchko'prik tumani	635
Oltiariq tumani	596
Farg'ona tumani	547
Buvayda tumani	536
Quva tumani	522
Dang'ara tumani	512
O'zbekiston tumani	505
Quvasoy shahar	500
Toshloq tumani	490
Yozyovon tumani	487
Rishton tumani	449
Qo'shtepa tumani	443
Beshariq tumani	398
Bag'dod tumani	389
So'x tumani	372
Furqat tumani	315

## Yillar kesimida soni (birlikda)



6 792

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

3 868

981

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 850 taga yetib, ularning 1 843 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:




- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,6 foiz ulushini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	487
Qo'qon shahar	156
Rishton tumani	123
Oltiariq tumani	118
Marg'ilon shahar	117
Bag'dod tumani	93
Farg'ona tumani	88
Quva tumani	82
O'zbekiston tumani	79
Dang'ara tumani	66
Quvasoy shahar	66
Toshloq tumani	62
Uchko'prik tumani	60
Qo'shtepa tumani	54
Furqat tumani	48
Buvayda tumani	44
Yozyovon tumani	40
Beshariq tumani	38
So'x tumani	29

## Yillar kesimida soni (birlikda)





(2025-yil 1-yanvar holatiga)

## Hududlar kesimida soni (birlikda)


Farg'ona shahar	180
Qo'qon shahar	60
Marg'ilon shahar	48
Rishton tumani	35
Buvayda tumani	33
Oltiariq tumani	32
Quva tumani	27
Toshloq tumani	24
Qo'shtepa tumani	22
Bag'dod tumani	17
Uchko'prik tumani	12
Farg'ona tumani	9
O'zbekiston tumani	8
Quvasoy shahar	8
Dang'ara tumani	7
Beshariq tumani	7
So'x tumani	7
Furqat tumani	6
Yozyovon tumani	6







2025-yil 1-yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 71,5 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 25,0 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,5 foizni tashkil etdi.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



 Kompyuter dasturlash, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	173	219	Aloqa 
 Noshirlik faoliyati	78	59	Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyati 
 Kino-videofilmlar,televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish	13	6	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish 

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 047 ta yoki 85,8 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 92,3 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;



yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,7 foizini tashkil etdi.;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,0 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	286
Qo'qon shahar	142
Marg'ilon shahar	77
Farg'ona tumani	73
Buvayda tumani	63
Beshariq tumani	58
Oltiariq tumani	57
Uchko'prik tumani	54
Quva tumani	51
Toshloq tumani	50
O'zbekiston tumani	49
Qo'shtepa tumani	44
Rishton tumani	43
Dang'ara tumani	38
Bag'dod tumani	34
Furqat tumani	33
Yozyovon tumani	27
So'x tumani	26
Quvasoy shahar	15

## Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

## Hududlar kesimida soni (birlikda)


Oltiariq tumani	342
Farg'ona shahar	244
Qo'qon shahar	141
Marg'ilon shahar	71
Toshloq tumani	54
Quvasoy shahar	54
O'zbekiston tumani	48
Farg'ona tumani	46
Uchko'prik tumani	44
Quva tumani	41
Dang'ara tumani	41
Beshariq tumani	39
Qo'shtepa tumani	36
Buvayda tumani	28
Rishton tumani	27
So'x tumani	24
Bag'dod tumani	20
Yozyovon tumani	20
Furqat tumani	19

2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,9 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 74,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 24,0 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,6 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,2 foizni tashkil etgan.

## Yillar kesimida soni (birlikda)





**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**

*(2025- yil 1- yanvar holatiga)*

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**


**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)**



(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	837
Qo'qon shahar	465
Marg'ilon shahar	359
Yozyovon tumani	316
Oltiariq tumani	257
Qo'shtepa tumani	246
Quva tumani	238
Uchko'prik tumani	231
Quvasoy shahar	219
Beshariq tumani	215


Buvayda tumani	213
Toshloq tumani	211
O'zbekiston tumani	191
Rishton tumani	164
Farg'ona tumani	163
Dang'ara tumani	162
Furqat tumani	130
Bag'dod tumani	129
So'x tumani	77

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Amaldagi 28,3 mingta tijorat korxonalar va tashkilotlaridan 2025- yil 1- yanvar holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 19,1 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni, savdo – 41,5 foiz, sanoat – 18,1 foiz, qurilish – 9,1 foiz, tashish va saqlashda – 6,2 foizni tashkil etdi.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	3653
Qo'qon shahar	2523
Marg'ilon shahar	1704
Uchko'prik tumani	1016
Oltiariq tumani	1011
Dang'ara tumani	860
Toshloq tumani	844
O'zbekiston tumani	826
Yozyovon tumani	787
Quva tumani	780


Qo'shtepa tumani	770
Farg'ona tumani	717
Quvasoy shahar	708
Buvayda tumani	664
Beshariq tumani	562
Bag'dod tumani	468
Rishton tumani	454
Furqat tumani	409
So'x tumani	356

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	73
Rishton tumani	55
Farg'ona tumani	48
Bag'dod tumani	47
Oltiariq tumani	28
So'x tumani	27
Buvayda tumani	26
Marg'ilon shahar	20
Uchko'prik tumani	18
Qo'shtepa tumani	17

Quvasoy shahar	16
Beshariq tumani	12
Furqat tumani	11
Qo'qon shahar	11
Quva tumani	9
Toshloq tumani	8
O'zbekiston tumani	4
Dang'ara tumani	4
Yozyovon tumani	2




(2025- yil 1- yanvar holatiga)


2025- yil 1- yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Farg'ona shahrida – 890 ta, Marg'ilon shaharida – 348 ta va Farg'ona tumanida – 346 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 280 ta, sanoat – 896 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 455 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 287 ta.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	890
Marg'ilon shahar	348
Farg'ona tumani	346
Bag'dod tumani	334
So'x tumani	325
Buvayda tumani	321
Oltiariq tumani	316
Quva tumani	302
Rishton tumani	294
Uchko'prik tumani	272


Qo'qon shahar	205
Toshloq tumani	192
Beshariq tumani	186
O'zbekiston tumani	160
Quvasoy shahar	148
Yozyovon tumani	139
Dang'ara tumani	138
Qo'shtepa tumani	128
Furqat tumani	120

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	90
Oltiariq tumani	61
Bag'dod tumani	60
O'zbekiston tumani	55
Farg'ona shahar	46
So'x tumani	43
Farg'ona tumani	42
Marg'ilon shahar	40
Quvasoy shahar	39
Furqat tumani	36


Qo'qon shahar	28
Quva tumani	26
Toshloq tumani	26
Uchko'prik tumani	23
Qo'shtepa tumani	20
Beshariq tumani	20
Dang'ara tumani	20
Buvayda tumani	9
Yozyovon tumani	7

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 3,7 mingtani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,5 foiz, sanoat – 31,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,3 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Rishton tumanida – 11,3 foiz, Farg'ona shahrida – 10,8 foiz va Oltiariq tumanida – 8,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	423
Farg'ona shahar	402
Oltiariq tumani	328
Qo'qon shahar	239
O'zbekiston tumani	225
Marg'ilon shahar	224
Bag'dod tumani	203
Dang'ara tumani	203
Uchko'prik tumani	194
Quvasoy shahar	176

Furqat tumani	161
Farg'ona tumani	160
Beshariq tumani	156
Toshloq tumani	122
So'x tumani	118
Quva tumani	116
Qo'shtepa tumani	114
Buvayda tumani	113
Yozyovon tumani	53

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)


**Fermer xo‘jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Mavsumiy va ko‘p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo‘limning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, fermer xo‘jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari umumiy sonining 100,0 foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	9
O‘zbekiston tumani	5
Dang‘ara tumani	4
Oltiariq tumani	3
Buvayda tumani	2
Farg‘ona shahar	2
Qo‘shtepa tumani	1
Bag‘dod tumani	1
Beshariq tumani	1
Quva tumani	1
Uchko‘prik tumani	1
Toshloq tumani	1
Farg‘ona tumani	1

## Yillar kesimida soni (birlikda)





# Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-yanvar holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Rishton (11,5 foiz), O'zbekiston (10,6 foiz) va Quva (9,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	1230
O'zbekiston tumani	1128
Quva tumani	976
Farg'ona tumani	886
Uchko'prik tumani	857
Bag'dod tumani	803
Oltiariq tumani	796
Beshariq tumani	674
Toshloq tumani	568
Quvasoy shahar	563
Qo'shtepa tumani	443
Dang'ara tumani	440
Yozyovon tumani	395
Furqat tumani	390
Buvayda tumani	363
Farg'ona shahar	94
So'x tumani	71

## Yillar kesimida soni (birlikda)



10 331

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

346

Baliq ovlash va akvakultura

1

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘shirish sur‘ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 124,8 foizni tashkil etdi.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)


Farg‘ona shahar	43	Buvayda tumani	3
Qo‘qon shahar	18	Beshariq tumani	3
Marg‘ilon shahar	17	Toshloq tumani	3
Quvasoy shahar	11	Dang‘ara tumani	3
Oltiariq tumani	9	Qo‘sh tepa tumani	2
Uchko‘prik tumani	9	O‘zbekiston tumani	2
Bag‘dod tumani	5	Furqat tumani	2
Rishton tumani	4	Yozyovon tumani	2
Farg‘ona tumani	4	Quva tumani	1

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 456 ta korxonalaridan 190 tasi qo'shma korxonalar va 266 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	150
Qo'qon shahar	57
Marg'ilon shahar	38
Quvasoy shahar	30
Uchko'prik tumani	26
Beshariq tumani	18
Farg'ona tumani	18
Oltiariq tumani	16
Toshloq tumani	15
Quva tumani	13

## Yillar kesimida soni (birlikda)



Dang'ara tumani	13
Bag'dod tumani	12
Rishton tumani	11
O'zbekiston tumani	11
Furqat tumani	8
Buvayda tumani	7
So'x tumani	5
Yozyovon tumani	5
Qo'shtepa tumani	3

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 100,2 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 132 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 21,1 foiz), Turkiya (ulushi 12,5 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,4 foiz) va Qirg'iziston (ulushi 5,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2025- yil 1- yanvar holatiga)





Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarining jami soniga nisbatan eng katta ulushi Farg'ona shahri 32,9 foiz, Qo'qon shahri – 12,5 foiz, Marg'ilon shahri – 8,3 foiz, Quvasoy shahri – 6,6 foiz va Uchko'prik tumani – 5,7 foiz to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

## qo'shma korxonalar


## xorijiy korxonalar

63	Farg'ona shahar	87	10	Dang'ara tumani	3
21	Qo'qon shahar	36	1	Bag'dod tumani	#
13	Marg'ilon shahar	25	6	Rishton tumani	5
17	Quvasoy shahar	13	5	O'zbekiston tumani	6
10	Uchko'prik tumani	16	6	Furqat tumani	2
2	Beshariq tumani	16	6	Buvayda tumani	1
11	Farg'ona tumani	7	-	So'x tumani	5
9	Oltiariq tumani	7	4	Yozyovon tumani	1
7	Toshloq tumani	8	2	Qo'shtepa tumani	1
2	Quva tumani	11			

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- yanvar holatiga)



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tuzidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro’yxatga olingan** – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo’lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko’rsatayotgan** – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilgan hamda moliya-xo’jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to’g’risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro’yxatdan o’tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- dekabr**dagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o’tish chora-tadbirlari to’g’risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo’lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo’limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- yanvar** holatiga ko’ra (fermer va dehqon xo’jaliklarisiz) shakllantirildi.

• Xabari versiyasi

STATISTIKA AGENTLIGI

Qiziq qizilab

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Agar tashkilotning boshqa nomini ko'rsatib

z.k.v.g. |

Rasmdagi kodni kiritib

Qizilab

© O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi rahbari  
2020 yil



## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:(73) 241-96-46

PRESS-RELIZ

